



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC	108
Musaeva Shoira Azimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	116
Yuldashev Abduxakim Abdulkarimovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНА.....	122
Анвар Аллабергенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUV VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabalova Dilorom Xalilullayevna	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida)	165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich	
Narmetova Dilafuz Azamatovna	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
Ахмедова Шахноза Козим кизи	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	181
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna	



O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH

Sharipova Bibijon Baxtiyorovna
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi
E-mail: bibijon@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston — 2030» strategiyasining «Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash» deb nomlangan maqsadlari samaradorlik ko'rsatkichlarining prognoz qiymatlari [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 85-maqsadiga erishish vazifalari [2], aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari, aholi turmush darajasini oshirish yo'nalishlari, O'zbekistonda aholining uzoq muddatli davrda foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanish darajasining hozirgi holati va istiqbollari yoritilgan.

Kalit so'zlar: aholi turmush darajasi, farovonlik, kambag'allik, ijtimoiy himoya, aholining uzoq muddatli davrda foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanishi, prognoz, korrelyatsiya koeffitsiyenti, regressiya tenglamasi.

Abstract. This article examines the forecast values of the performance indicators of the goals entitled “Ensuring the Well-being of the Population through Sustainable Economic Growth” within the “Uzbekistan — 2030” Strategy, approved by Decree No. PF-21 of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 16, 2026 [1]. It also analyzes the tasks for achieving Goal 85 of the New Uzbekistan Development Strategy for 2022–2026, approved by Decree No. PF-60 of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 [2], the main indicators of the population's standard of living, directions for improving the standard of living, as well as the current state and prospects of the provision of households in Uzbekistan with long-term-use goods.

Key words: standard of living of the population, well-being, poverty, social protection, provision of the population with long-term-use goods, forecast, correlation coefficient, regression equation.

Аннотация. В данной статье рассматриваются прогнозные значения показателей эффективности целей «Обеспечение благосостояния населения посредством устойчивого экономического роста» в рамках стратегии «Узбекистан — 2030», утвержденной Указом Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 года № ПФ-21 [1]. Также анализируются задачи по достижению цели 85 Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, утвержденной Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 [2], основные показатели уровня жизни населения, направления повышения уровня жизни, а также текущее состояние и перспективы обеспеченности населения Узбекистана товарами длительного пользования.

Ключевые слова: уровень жизни населения, благосостояние, бедность, социальная защита, обеспеченность населения товарами длительного пользования, прогноз, коэффициент корреляции, уравнение регрессии.


KIRISH

Aholining ijtimoiy turmush sharoiti jamiyatning barcha a'zolariga mehnat qilish, dam olish, har tomonlama jismoniy va madaniy rivojlanishni ta'minlash hamda mehnat sharoitini yaxshi tashkil etish, kishilar salomatligi va mehnat qilish qobiliyatini saqlashni kafolatlash, vaqtincha ishga qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy ta'minot, nafaqalar bilan ta'minlash, nisbatan kam daromadli oilalarni ijtimoiy himoyalashni ifodalaydi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan [2]. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi



7 ta yo'nalish va 100 ta maqsaddan iborat. Mazkur strategiyaning 85-maqsadi "Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish" deb nomlanib, shu maqsadga erishishda quyidagi vazifalar belgilab berilgan (1-rasm).



1-rasm. 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyaning 85-maqsadiga erishish vazifalari [2]

Aholi turmush darajasiga ta'sir etuvchi eng asosiy omillardan biri aholi daromadlari hisoblanadi. Aholi turmush darajasi — bu aholining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Q.X. Abdurahmonov aholining iqtisodiy farovonligiga quyidagicha ta'rif bergan: "Iqtisodiy farovonlik deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi" [4]. Yo. Abdullayev tomonidan chop etilgan "Makroiqtisodiy statistika" kitobida "Aholi iqtisodiy farovonligi — ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, u kishilarning moddiy va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojining qondirilishi hamda turmush sharoitining yaxshilanish darajasini tavsiflaydi" [5], deb ta'rif berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Asosiy ilmiy-nazariy qoidalarni ishlab chiqishda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, statistik guruhlash, modellashtirish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi iqtisodiy farovonligi tor ma'noda — bu iste'mol darajasi, talabning qondirilish darajasini ta'riflashni ifodalaydi. Keng ma'noda esa aholi iqtisodiy farovonligi inson rivojlanish darajasini ta'riflash, hayotiylik sharoitini baholashni ifodalaydi. Aholi iqtisodiy farovonligining turli komponentlari mavjud (1-jadval).




1-jadval
Aholi iqtisodiy farovonligi komponentlari [6]

BMT konsepsiyasi	Shved modeli
1. Salomatlik	1. Mehnat va mehnat sharoiti
2. Ovqatlanish	2. Iqtisodiy imkoniyat
3. Ta'lim	3. Siyosiy imkoniyat
4. Bandlik va mehnat sharoiti	4. Maktab ta'limi
5. Turar joy sharoiti	5. Salomatlik va tibbiy yordamdan foydalanish
6. Ijtimoiy ta'minot	6. Ijtimoiy imkoniyat (oila va oila munosabatlarining shakllanishi)
7. Kiyim-kechak	7. Turar joy
8. Dam olish va bo'sh vaqt	8. Ovqatlanish
9. Inson huquqlari	9. Bo'sh vaqt va uni o'tkazish

1-jadvalda iqtisodiy farovonlik komponentlarini aks ettiruvchi BMT konsepsiyasi (1961-y.) va shved modeli (1970-yillar) ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, BMT konsepsiyasida asosiy e'tibor salomatlik va ovqatlanishga, shved modelida esa mehnat va mehnat sharoitlariga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti aholi farovonligini oshirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi (2-rasm).



2-rasm. Aholi farovonligini oshirish yo'nalishlari¹

Aholining iqtisodiy farovonligini o'rganishning eng muhim jihatlari quyidagilar hisoblanadi: iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi hisoblangan insonning asosiy sifatli xususiyatlari bahosi: yuksak darajada davom etishiga erishish uchun sog'lom turmush tarzini olib borishga qobiliyat; ta'lim olish imkoniyatlari, munosib turmush uchun yetarli mablag'larga ega bo'lish va yuksak kasbiy sifatlarni egallash;

nominal va real daromadlarni baholash;

aholining uy-joy, uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan iste'mol ne'matlari bilan ta'minlanish xususiyati; dunyoning turli mamlakatlaridagi iqtisodiy farovonlik va sifatini baholash.

Aholi ehtiyojlarining xilma-xilligi, ularning cheksizligi, solishtirishning o'ziga xos qiyinchiliklari iqtisodiy farovonlikni tavsiflashda tizimli yondashuvdan foydalanishga majbur qiladi.

Iqtisodiy farovonlikning markaziy xususiyati ushbu kategoriyani dominant bo'lib chiquvchi va uning yuzaga kelish mexanizmini tavsiflashda ikkinchi daraja mohiyatini tashkil qiluvchi aholi ehtiyojlaridir. Uchinchi daraja insonlarning iste'mol sohasidagi xulqi bo'lib, u iste'molchilarning muayyan harakatlarida, iste'molida, ularning turmush uslubi va tarzida haqiqiy timsolini topuvchi turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Shuni qayd qilish maqsadga muvofiq, aholi iqtisodiy farovonligi nafaqat alohida oilalar, jamoalarning mehnati va iqtisodiy faolligi bilan, balki iqtisodiyotni rivojlantirish samaradorligi va umuman milliy boylik darajasi,

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 85-maqsadi asosida muallif tomonidan tuzilgan.



jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ahvoli va rivoji, ijtimoiy maqsadga qaratilgan qonuniy asosning borligi yoki yo'qligi bilan belgilanadi.

Iqtisodiy farovonlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar har xil va iqtisodiy farovonlik konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ba'zi eng muhim ko'rsatkichlar 2-jadvalda ko'rsatilgan.


2-jadval

Aholi iqtisodiy farovonligining asosiy ko'rsatkichlari²

Hajmiy (mutlaq)	Solishtirma (o'rtacha)
1. Milliy daromad hajmi	1. Iste'mol fondining milliy daromaddagi ulushi
2. Aholining milliy daromadlari	2. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar
3. Ish haqi fondi	3. O'rtacha va eng kam ish haqi
4. Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar	4. Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan o'rtacha daromad
5. Pensiya fondi hajmi	5. O'rtacha va eng kam pensiya miqdori
6. Tovar aylanish hajmi	6. Aholi jon boshiga tovar aylanishi
7. Bajarilgan xizmatlar hajmi	7. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi
8. Uy-joy fondi kattaligi	8. Bir kishiga uy-joy bilan ta'minlanganlik (kv.m, xona)
9. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholi soni	9. Iqtisodiy faol aholida ishsizlar ulushi
10. Aholining tabiiy o'sishi	10. Umrning davomiyligi

Iqtisodiy farovonlikni insonlarning iqtisodiy va moddiy sharoitlar hamda imkoniyatlar hisobiga erishiladigan, iste'mol orqali amalga oshiriladigan, eng avvalo, daromadlar darajasi va turmush qiymatining o'zaro nisbati bilan belgilanuvchi moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirish darajasi sifatida qabul qilish kerak.

Yurtimizda kechayotgan o'zgarishlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul mablag'lari, o'rtacha nominal va real ish haqi miqdori, belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar ko'rsatkichlarini yaqqol namoyon etmoqda (3-rasm).



3-rasm. Aholi jon boshiga umumiy daromadlarining o'tgan yilga nisbatan real o'sish sur'ati [7]

2 Muallif ishlanmasi.




«O‘zbekiston — 2030» strategiyasining «Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlash» deb nomlangan maqsadlari samaradorlik ko‘rsatkichlarining prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan [1].

3-jadval

«O‘zbekiston — 2030» strategiyasining «Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlash» deb nomlangan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarining prognoz qiymatlari [1]

T/r	Maqsadlar	Maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari	Hozirgi ko‘rsatkich (2025)	Yillar kesimida					
				2026	2027	2028	2029	2030	
45.	2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini oshirish va «daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar» qatoriga kirish	Yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollardan oshirish	145 mlrd	167 mlrd	182 mlrd	199 mlrd	218,5 mlrd	240 mlrd	
		Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini 5,8 ming dollardan oshirish	3,8 ming	4,3 ming	4,6 ming	5 ming	5,3 ming	5,8 ming	
		Davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 50 foizdan oshirmaslik	35 foiz	40 foiz					-
		Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha 5 — 7 foiz atrofida o‘shishini ta‘minlash	5 foiz	5 foiz	5,5 foiz	6 foiz	6,5 foiz	7 foiz	
		2030 yilga borib yillik inflyatsiyani 5 foiz darajasida ta‘minlash	7,3 foiz	6 — 6,5 foiz	5 foiz	5 foiz	5 foiz	5 foiz	

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, aholi daromadlari va hayot darajasini muntazam oshirib borish, xalqimizni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar aholi jon boshiga umumiy va real umumiy daromadlarning oshishini ta‘minladi (4-rasm).



4-rasm. O‘zbekiston Respublikasida aholi daromadlari tarkibi, %[7]

Aholi daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromadlar salmoqli o‘rinni egallaydi va uning hisyasi yildan-yilga o‘zgarib bormoqda. Xususan, 2010-yilda aholi daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromadlar 78,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 68,7 foizni tashkil etdi.

Har qanday mamlakatda aholining turmush farovonligi oshib borayotganligini uning uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar bilan ta‘minlanish darajasidan kelib chiqib baholash mumkin. O‘zbekistonda aholining uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar bilan ta‘minlanish darajasi yildan-yilga ortib bormoqda.

Endi vaqt omilining ta‘siri ostida O‘zbekistonda aholining uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar bilan ta‘minlanish darajasini istiqboldagi davr uchun prognoz qilamiz.



4-jadval
Aholining uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanishi
(har 100 xonadonga to'g'ri keladigan tovarlar soni) [7]

Yillar	t	Tele- vizorlar, dona	Sovut-gich va muzlatgichlar, dona	Konditsionerlar, dona	Elektr changyutgichlar, dona	Shaxsiy kompyuterlar, dona	Kir yuvish mashinalari, dona	Mobil telefonlar, dona	Yengil avtomobillar, dona
2010	1	132	99	19	37	12	75	145	21
2011	2	133	100	20	38	16	77	158	24
2012	3	136	100	27	45	22	78	186	27
2013	4	146	100	29	51	32	78	210	35
2014	5	151	101	30	51	37	78	228	41
2015	6	152	101	32	53	47	79	234	42
2016	7	153	102	34	54	49	80	246	43
2017	8	154	101	34	54	50	80	257	44
2018	9	155	103	35	55	52	81	262	44
2019	10	160	106	39	58	55	89	282	47
2020	11	162	107	40	60	60	90	287	49
2021	12	170	114	43	64	63	94	308	53
2022	13	171	115	45	69	64	95	309	55
2023	14	176	118	47	71	66	96	349	57
2024	15	177	121	56	82	73	101	356	58
2025	16	179	124	67	85	76	105	359	61

Keyinchalik aholining uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlari hajmini natijaviy ko'rsatkich sifatida ekonometrik modelga kiritib, uni "Y" bilan belgiladik. Funktsiyaga ta'sir etuvchi omil sifatida X — vaqt omili, yil qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2011–2025-yillardagi yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlari asosida Microsoft Excel dasturida quyidagi ekonometrik model hisoblandi (5-jadval).

5-jadval
Vaqt omili va mamlakatda aholining uzoq muddatli foydalaniladigan
tovarlar sonining istiqbolli davr uchun o'sish funksiyalari³

Ko'rsatkichlar nomi	a0	b0	Y	R (kor-relyatsiya koef-ti)	F (Fisher mezon)	t-(Student mezon)
Televizorlar, dona	129.85	3.16	$Y=129,85+3,16 \times t$	0.98	447.6	29.80
Sovutgich va muzlatgichlar, dona	93.05	1.64	$Y=93,05+1,64 \times t$	0.92	78.07	12.26
Konditsionerlar, dona	16.08	2.50	$Y=16,08+2,50 \times t$	0.95	133.29	16.13
Elektr changyutgichlar, dona	34.45	2.76	$Y=34,45+2,76 \times t$	0.96	170.73	18.30
Shaxsiy kompyuterlar, dona	14.13	4.03	$Y=14,13+4,03 \times t$	0.98	276.55	23.37
Kir yuvish mashinalari, dona	69.65	1.92	$Y=69,65+1,92 \times t$	0.95	127.61	15.77
Mobil telefonlar, dona	143.43	13.83	$Y=143,43+13,83 \times t$	0.99	700.34	37.33
Yengil avtomobillar, dona	22.78	2.48	$Y=22,78+2,48 \times t$	0.97	243.54	21.92

Yuqoridagidan ko'rishimiz mumkinki, R — bu korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'lib, u omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligini ko'rsatadi. Ya'ni, omil ko'rsatkich — vaqt (yillar), natijaviy ko'rsatkich sifatida mamlakatda aholining uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar soni o'rtasidagi bog'lanish zichligi juda kuchli ekanligini ko'rib

3 Muallif ishlanmasi.



turibmiz.

Fisher mezonni qiymatlari jadvaliga asosan kuzatuvlar soni 16 ta va omillar soni 1 ta bo'lganda uning qiymati 4,49 ga teng. Modelimizdagi barcha uzoq muddatli davrda foydalaniladigan tovarlar funksiyasining qiymati bu raqamdan katta. Demak, modelimizning ishonchlilik darajasi juda yuqori.

Regression model adekvatligi regressiya tenglamasi parametrlari va chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyentining ahamiyatlilikini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun Studentning t -mezonidan foydalaniladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, t -mezonning haqiqiy va Student jadvalidagi qiymatlarini taqqoslash orqali model adekvatligiga baho beriladi. Model adekvat bo'lishi uchun:

$$t_{\text{haqiqiy}} > t_{\text{jadval}} \text{ bo'lishi kerak}$$

Studentning t -mezonni hisoblangan (t_{hisob}) va jadval (t_{jadval}) qiymatlarini taqqoslab, N_0 gipoteza qabul qilinadi. Buning uchun t -mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi (d.f. = $n - m - 1$) shartlar asosida topiladi. Bu yerda n – kuzatuvlar soni; m – omillar soni .

5-jadval ma'lumotlariga asosan ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajasi d.f. = $16 - 1 - 1 = 14$ bo'lganda, t -mezonning jadval qiymati $t_{\text{jadval}} = 2.1448$ ga teng. Barcha hisoblangan t -mezonning qiymatlari jadval qiymatlaridan katta bo'lganligi bois model parametrlari adekvat, deb topiladi.

6-jadval

Mamlakatda aholining uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar sonini trend funksiyasi orqali aniqlangan prognoz ko'rsatkichlari⁴

Yillar	t	Tele- vizorlar, dona	Sovut-gich va muzlatgichlar, dona	Kondit- sionerlar, dona	Elektr changyutgichlar, dona	Shaxsiy kompyuterlar, dona	Kir yuvish mashinalari, dona	Mobil telefonlar, dona	Yengil avtomobillar, dona
2026	17	184	121	59	81	83	102	379	65
2027	18	187	123	61	84	87	104	392	67
2028	19	190	124	64	87	91	106	406	70
2029	20	193	126	66	90	95	108	420	72
2030	21	196	128	69	92	99	110	434	75

6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda har 100 ta xonadonga to'g'ri keladigan aholining uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanish darajasi barqaror darajada oshib bormoqda. Xususan, 2030-yilga borib, 2025-yilga nisbatan mamlakatimizda har 100 ta xonadonga to'g'ri keladigan televizorlar soni 1,096 barobarga, sovutgich va muzlatgichlar soni 1,028 barobarga, konditsionerlar soni 1,023 barobarga, elektr changyutgichlar soni 1,088 barobarga, shaxsiy kompyuterlar soni 1,299 barobarga, kir yuvish mashinalari soni 1,048 barobarga, mobil telefonlar soni 1,209 barobarga, yengil avtomobillar soni 1,225 barobarga ortar ekan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalarga asoslanib, aholi turmush darajasini oshirish va kambag'allikni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tavsiyaviy xarakterdagi quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik:

aholining ma'lumotlilik, ayniqsa, oliy ma'lumotlilik darajasini oshirish, kasbiy-malaka darajasini oshirish bo'yicha masofaviy (onlayn) ta'limni rivojlantirish;

aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini ijtimoiy faollik va mehnatga rag'batni pasaytirmaydigan tarzda takomillashtirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini manzilli ravishda qo'llab-quvvatlash;

kishilardagi mehnatga rag'bat va iqtisodiy faollikni oshirish, ularni o'z qiziqishlari bo'yicha mehnat qilib daromad topishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholining tadbirkorlik qobiliyatini oshirish, mulkdorlik madaniyati va tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirish, maqsadli yo'nalishlarda ularga imtiyozli kreditlar va soliq bo'yicha imtiyozlar berish;

aholining mavjud imkoniyatlaridan, jumladan, qishloq joylarida tomorqa yerlaridan samarali foydalanishini rag'batlantirish hamda bu boradagi monitoring mexanizmlarini takomillashtirish;

4 Muallif ishlanmasi.



aholi o'rtasida ortiqcha xarajat talab qiluvchi marosimlarni maqbullashtirish, oilaviy mablag'lardan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish hamda bu boradagi targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

aholini tadbirkorlikka qiziqtirish, o'qitish, ularning tadbirkorlik sohasidagi bilimlarini oshirish maqsadida televideniye orqali o'z sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan yetakchi tadbirkorlar ishtirokida amaliy mashg'ulotlar va suhbatlar tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatining ijobiy tajribalarini yorituvchi materiallar va filmlarni keng namoyish etish va boshqalar.

Mamlakatimizda har 100 ta xonadonga to'g'ri keladigan aholining uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanish darajasi barqaror darajada oshib bormoqda. Xususan, 2030-yilga borib, 2025-yilga nisbatan mamlakatimizda har 100 ta xonadonga to'g'ri keladigan televizorlar soni 1,096 barobarga, sovutgich va muzlatgichlar soni 1,028 barobarga, konditsionerlar soni 1,023 barobarga, elektr changyutgichlar soni 1,088 barobarga, shaxsiy kompyuterlar soni 1,299 barobarga, kir yuvish mashinalari soni 1,048 barobarga, mobil telefonlar soni 1,209 barobarga, yengil avtomobillar soni 1,225 barobarga ortar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 621 b.
4. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. – T.: Mehnat, 2009. – 357 b.
5. Abdullayev Yo. Makroiqtisodiy statistika: o'quv qo'llanma. – T.: Mehnat, 1998. – 181 b.
6. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Aholi turmush tarzi va daromadlari: o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 227 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. – URL: <https://stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>